

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-SENTABR

ANDIJON, 2024

NUTQI TO'LIQ RIVOJLANMAGAN BOLALARING GRAFOMOTOR MALAKALARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Tuxtayeva Maxfirat

U.Q.Qurbanov nomidagi Respublika
bolalar ruhiy-asab kasalxonasi logopedi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi NTR bolalarning grafomotor ko'nikmalaridagi o'ziga xos xususiyatlari qayd etib o'tilgan, grafik malakalarni shakllantirish, bolalarni kuzatish, ular bilan grafomotor malakalarni shakllantirish uchun bajariladigan mashqlar haqida so'z yuritilgan. Maktabgacha yoshdagи bolalalarda grafomotor malakalarini o'rghanishda nutqiy faoliyatdagi buzilishlar bolalarning sensor, intellektual, affektiv-irodaviy sohalari shakllanishiga ta'sir ko'rsatishi yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: nutqning to'liq rivojlanmaganligi, grafomotor, intellektual, malaka, markaziy nerv tizimi, nutq komponentlari, maktabgacha yosh.

Nutqning to'liq rivojlanmaganligi (NTR) termini ostida turli nutq buzilishlari tushuniladi, bunda bolalar nutq tizimining barcha komponentlarida ma'lum buzilishlar yuzaga keladi. Ayni holatda eshitish qobiliyati va intellekt saqlanib qolgan bo'lsada, nutqning tovush va mazmun jihatni buziladi.

NTR turli sabablar oqibatida yuzaga keladi. Bolaning rivojlanishidagi biologik va ijtimoiy omillar ayni nuqsonni yuzaga keltiruvchi yetakchi omillardan sanaladi. Onaning homiladorlik davrida boshdan kechirgan infektion kasalliklari, perinatal davr patologiyalari, bolaning markaziy nerv tizimidagi kasalliklari, hayotning ilk yilidagi kalla-bosh miya jarohatlari, bolaning somatik jihatdan holsizligi biologik omillar sirasiga kiradi. NTR ni yuzaga keltiruvchi ijtimoiy omillarga bolani tarbiyalash va o'qitishdagi salbiy muhit, nutqiy rivojlanishning kritik davridagi ruhiy depravatsiya va boshqalar kiradi.

NTR ni aniqlashga yordam beruvchi dastlabki belgilari: bolaning kech gapirishi, lug'at boyligining sustligi va tovush talaffuzidagi nuqsonlar. NTR ning ayni belgilari nutqiy faoliyatning barcha komponentlaridagi buzilishlardan darak beradi. Bunday bolalarning nutqiy tajribasi cheklangan, til vositalari takomillashmagan bo'ladi.

NTR ni tasniflashga psixologo-pedagogik jihatdan yondashuv ilk bor R.Ye.Levina tomonidan taklif etildi. Ushbu yondashuv doirasida nutqiy patologiyasi bo'lgan bolalar nutqining rivojlanishidagi uch daraja farqlab berildi.

Bir nutqiy rivojlanish darajasidan boshqasiga o'tish nutqiy faollikning oshishi, tilning yangi imkoniyatlari paydo bo'lishi bilan aniqlanadi. Bola nutqining rivojlanishidagi individual temp birlamchi nuqsonning og'irlik darajasi va uning shakliga bog'liq bo'ladi.

Nutqiy rivojlanishning birinchi darajasida bolalar deyarli umuman gapira olmaydi: ularning nutqi tovushga taqlid so'zlardan iborat bo'ladi. Bolalar o'z nutqida imo-ishoralar va mimikadan foydalanadilar, biroq atrofdagilar ularni baribir tushunmaydi.

Nutqiy rivojlanishning ikkinchi darajasi bolalarning nutqiy imkoniyatlari nisbatan yaxshilanishi, bolaning tovush talaffuzida yaqqol ifodalangan nuqsonlar kuzatilsada, uning doimiy ravishda nutqdan foydalanishi bilan izohlanadi. Ayni darajada bolaning lug'at zaxirasi boyroq bo'ladi va unda predmetlar, harakatlar va sifatlarni tasvirlovchi so'zlar mavjud bo'ladi.

Nutqiy rivojlanishning uchinchi darajasi bolaning maishiy nutqi nisbatan yoyiq ekanligi va qo'pol leksik-grammatik hamda fonetik buzilishlarning deyarli kuzatilmasligi bilan farqlanadi. Og'zaki nutqda alohida agrammatik frazalar, ba'zi so'zlarni noo'rin qo'llash, fonetik kamchiliklarning nisbatan kamligi kuzatiladi.

Ko'pgina olimlarning (O. B. Inshakova, O. I. Krupenchuk) qayd etishicha, NTR li bolalarning nutqiy tizimidagi barcha sohalarning buzilishi fonida harakat sohasidan ortda qolish kabi holatlar ham kuzatiladi. Umumiyligi va mayda motorikada kamchiliklar yuzaga keladi.

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-SENTABR

ANDIJON, 2024

Demak, bu holat grafomotor ko'nikmalarning shakllanishiga ham o'z ta'sirini ko'rsatmasdan qolmaydi.

Umumiy motorikadagi buzilishlar harakatlar tezligining susayishi, epchillikning kamayishi, ba'zi harakatlar koordinatsiyasining buzilishi hamda harakatli mashqlarni bajarishda o'ziga bo'lgan ishonchszlik bilan namoyon bo'ladi.

Mayda motorika buzilishlarida esa qo'l barmoqlari harakatlarining koordinatsiyasi yetarli darajada shakllanmaganligi, bir harakatdan boshqasiga o'tishdagi qiyinchiliklar, bir holatda qotib qolish va hokazolar kuzatiladi. Bola somatik jihatdan holsiz bo'lganida nafaqat butun organizm, balki qo'l kaftlari va barmog'idagi lanjlik ham kuzatiladi. Bolaning rasm chizishga no'noqligi va hokazo holatlar ayni shular sabab yuzaga keladi.

Bundan tashqari, O. V. Troshinining tadqiqotlarida aniqlanishicha, NTR bolalar normal rivojlanayotgan tengdoshlaridan harakatlari topshirilarni bajarishda fazo va vaqt parametrlari bo'yicha orqada qolishi, ba'zi harakatlarni tushirib qoldirishi bilan ajralib turadi. Yozuvda fazoviy vaqt buzilishlari harflarni qator bo'ylab to'g'ri joylashtira olmaslik bilan ifodalanadi, bunda bola yozish paytida bir qatordan boshqasiga o'tib ketishi mumkin.

Ya. I. Gostunskeyaning ta'kidlashicha, ko'ruv-motor koordinatsiyasi grafomotor ko'nikmalarni shakllantirishdagi muhim yo'nalishlardan biri sanaladi. Maktabgacha yosh davrining katta qismida tasviriy harakatlar asosan harakat analizatori asosida nazorat qilinadi. NTR bolalarning organizmida somatik holsizlik oqibatida harakat buzilishlarining yuziga kelishini hisobga olsak, o'z navbatida bunday bolalarada ko'ruv-motor koordinatsiyasining buzilishi kuzatiladi. Bu holat yozuvda vertikal va gorizontal to'g'ri chiziqlarni tekis chiza olmaslik, husnixatning bir maromda emasligi, qo'lning titrashi bilan ifodalanadi.

O. B. Inshakovaning ishlarida katta maktabgacha yoshdagi NTR bolalarning grafomotor ko'nikmalaridagi o'ziga xos xususiyatlar qayd etib o'tilgan:

1. Bolalar ko'ruv-fazoviy mo'ljal olish bilan bog'liq nuqsonlar sababli biror rasmni yoki predmetni ko'chirib chizishda qiyinchiliklarga duch kelishadi.

2. Bolalar qo'l barmoqlari harakatlarini bajarishda tez charchab qolishadi, ular barmoqlari yordamida turli harakatlarni bajara olishmaydi, bir harakatdan ikkinchisiga o'tishda ma'lum bir tempga rioya qila olmaydilar.

3. Grafik kombinatsiyalarni ko'chirib chizishda bolalar namunaning balandligi, kengligi va qatorini hisobga olishmaydi, chiziqlar yetarli darajada aniq va tekis ifodalanmaydi.

4. Qo'l barmoqlari koordinatsiyasining yetishmovchiligi, bir holatda qotib qolish, bir harakatdan ikkinchisiga o'tishdagi qiyinchiliklar va harakatlarning sekinlashganligi qayd etiladi.

5. Yozuv, shtrixlash, rasm chizish va hokazolardagi tartibsizlik kuzatiladi.

6. Ishchi qo'l mushaklarining sustligi oqibatida yozish paytida ruchka qog'ozga yetarlicha bosim bilan bosilmaydi.

7. Bolalar harakatlar elementining ketma-ketligini buzishadi, uning tarkibiy qismlarini tushirib qoldirishadi.

Yozma nutqdagi buzilishlar oqibatida bolalar pedagogning og'zaki ko'rsatmalarini to'liq tushunishmaydi. Umuman olganda grafomotor ko'nikmalarning yuqorida qayd etilgan o'ziga xos xususiyatlari ularning qoniqarli holatda emasligidan darak beradi.

Nutqiy faoliyatdagi buzilishlar bolalarning sensor, intellektual, affektiv-irodaviy sohalari shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi. Bunda diqqatning yetarli darajada turg'un emasligi, uni taqsimilanishining cheklanganligi qayd etiladi. Mazmuniy va mantiqiy xotira nisbatan saqlanib qolgan bo'lsada, bolalardagi verbal xotira susayadi, eslab qolish jarayonining samaradorligi pasayadi. Ular murakkab tuzilmalarni, elementlarni va ularning ketma-ketligini eslab qola olmaydilar.

Pedagog tomonidan to'g'ri ishlab chiqilgan korreksion dastur va to'g'ri tanlangan mashqlar yordamida bolaning grafomotor ko'nikmalarni o'zlashtirishiga u yoki bu darajada turtki berish mumkin. Mayda motorika, ko'ruv-motor koordinatsiyasi, fazoviy-vaqt

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-SENTABR

ANDIJON,2024

parametlarini rivojlantirishga hamda qo'l kafti mushaklarini mustahkamlashga qaratilgan mashqlarni bolalar bilan tashkil etiladigan korreksion ish dasturiga albatta kiritish lozim.

Grafomotor faoliyatni o'zlashtirish jarayoni bola uchun juda mashaqqatli hisoblanadi, NTR bolalar uchun esa bu jarayon ikki baravar ko'proq qiyinchiliklarni tug'diradi. Agar maktabgacha yoshda grafomotor faoliyat sohasiga doir korreksion ishlar olib borilmasa, bu holat maktabdagi ta'llim mobaynida yozuvdagagi xatoliklarga sabab bo'ladi, oqibatda esa bolaning matab dasturini o'zlashtirish darajasi pasayib ketadi. Shu bilan birgalikda husnixatning xunuklashishi, yozuvning tushunarsizligi va qo'pol orfografik xatolar ham kuzatilishi mumkin.

Shunday qilib, katta maktabgacha yoshdagagi NTR bolalarda nutqning barcha tizimlari zararlanganligi sababli bolaning motor rivojlanishi ham ortda qola boshlaydi. Bu holat mayda va umumiy motorikaning to'liq shakllanmaganligi bilan ifodalanishi mumkin. Ushbu buzilishlar yozuvda namoyon bo'ladi. Bolalarning xati tushunarsiz va hunuk bo'lib, daftarda mo'ljal olish katta qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Bularning barchasi maktabda o'qish bilan bog'liq qiyinchiliklar, boladagi xavotir hissi va o'zlashtirish darajasining susayishini keltirib chiqaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ayupova M. Yu. Logopediya. T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati -2007.
2. Безруких М. М. Обучение первоначальному письму: Система Д. Б. Эльконина / М. М. Безруких. - М. : Просвещение, 2002.
3. Илюхина В.А. «Готовим руку к письму и учимся писать красиво. Учебно-методическое пособие для подготовки к школе»; М. : Владос, 2010
4. Иншакова О. Б. Развитие и коррекция графомоторных навыков у детей 5-7 лет: Пособие для логопеда: В 2-х ч. Ч. 1: Формирование зрительно-предметного гнозиса и зрительно-моторной координации. – М. : Владос, 2003. – 183 с.